

SHAXS IJTIMOYILASHUV JARAYONLARINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

Dadaqo‘ziyeva Oltinxon Temirovna

*Andijon viloyati Paxtobod tumani 28-umumiy
o‘rta ta‘lim maktabi amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Maqolada ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning shaxs sifatida kamol topishida ijtimoiylashuv jarayonining muhimligi haqida so‘z boradi, shaxsning shakllanishiga bevosita ta‘sir etadigan ijtimoiy-psixologik omillar, ayniqsa oila muhitining hal qiluvchi o‘rni keng yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, jamiyat, ruhiy taraqqiyot, ijtimoiylashuv, ijtimoiy normalar, ijtimoiy omillar, oila muxiti.

Bugungi kunda ijtimoiy psixologiya va umuman olganda inson hamda jamiyat tizimidagi sohalarning asosiy vazifasi – shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni, unga ta‘sir etuvchi omillar, ijtimoiylashuvning harakatlantiruvchi kuchlarini tahlil qilish, ularni boshqarishning eng samarali usullarini hayotga tatbiq etishdir. Xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosi va umuminsoniy qadriyatlari asosida milliy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o‘tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo‘lib qoldi. O‘z haq-huquqlarini taniydigan o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un ko‘radigan shaxs - fuqarolarni voyaga yetkazish tizimini hayotga tatbiq etish bugungi kunning eng muhim masalasi sanaladi. ...“Ko‘zlagan maqsadlarimiz qanchalik yuksak va mashaqqatli bo‘lmasin, ularga yetish uchun barcha imkoniyatlarimiz mavjud. Ajdodlarimiz merosi, xalqimizning ilmiy va bunyodkorlik salohiyati hamda tadbirkorlik fazilati bizga bu yo‘lda beqiyos kuch-qudrat manbayi bo‘lib xizmat qiladi... Bilimli avlod buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa - taraqqiyotning kafolatidir!...”[1,2]. Ta‘lim jarayonida samaradorlikka erishish maqsadida ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ta‘lim sifatiga ta‘sir etuvchi eng muhim omillardan biri ta‘lim beruvchi o‘qituvchi shaxsidir, shu sababdan pedagoglarning kasbiy tayyorgarligiga juda katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu o‘rinda, rivojlanib borayotgan O‘zbekiston sharoitida ayniqsa yangicha dunyoqarash va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishini, shaxsning o‘z-o‘ziga va boshqalarga ta‘sir etishini o‘rganish eng dolzarb masalalardan biridir. Shaxsning ijtimoiylashuvi o‘ziga xos jarayon sifatida, shaxsning hayoti va faoliyatida o‘z aksini topadi. Bolaning mustaqil hayotga qadam qo‘yishi, uning ijtimoiylashuvi, shaxsning jamiyat hayotiga,

uning ijtimoiy ta'sirlariga moslashishi, uning ijtimoiy voqelikni bilish va anglash faoliyatiga bo'lgan muhim ehtiyoji sifatida paydo bo'ladi.[2] Shu bilan birga, bolada yana bir zarur hayotiy ehtiyoj, ya'ni har bir shaxsda o'ziga xoslikni, alohidalikni namoyon etish hissi ham shakllanadi. Bola o'z "Men"ini ro'yobga chiqarish uchun turli usullar va vositalarni qidira boshlaydi va shu orqali uning shaxsiy sifatleri shakllanadi. Shaxsning alohida tipologik, o'ziga xos xislatlari, faqat o'ziga tegishli bo'lgan ijtimoiy faoliyatida namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy xulq-atvori esa takrorlanmas jihatlarga ega bo'lib boradi. Bolaning shaxs sifatida ulg'ayib, ijtimoiy rivojlanishi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan ikkita yo'nalishda olib boriladi: -moslashuv (ijtimoiy-madaniy va tarixiy tajribalarni o'zlashtirish); -individuallashiv(mustaqillik, nisbatan o'ziga xoslikka ega bo'lish).

Ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy ilm-fanda inson shaxsining jamiyat hayotiga moslashishi va individuallashishi (o'ziga xoslikning ifodalanishi) kabi jarayonlarini o'zaro bog'lab turadi. Shaxsning muayyan bir jamiyatdagi ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashuvi va o'zini alohida olingan shaxs sifatida tasavvur qilishi ijtimoiylashuv jarayonining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Moslashish subyekt va uni o'rab turgan ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuvi natijasi hisoblanadi. Ijtimoiy moslashuv jamiyatdagi mavjud ijtimoiy qatlamlariga xos bo'lgan vositalar orqali amalga oshiriladi: - bolaga g'amho'rlik qilish usullari; - maishiy va gigienik yurish-turish qoidalari; - insonni o'rab turuvchi moddiy va ma'naviy ne'matlar; - shaxslararo muloqot va muomala usullari; - oilada rag'batlantirish va jazolash usullari; - shaxslararo o'zaro munosabatlar; - faoliyat turlari: o'yin, amaliy faoliyat, sport faoliyati. Har bir jamiyatda ijtimoiy guruhlar uchun turli-tuman ijtimoiy normalar va ta'qiqlashlardan iborat chora-tadbirlar ishlab chiqiladi, shu orqali inson xulq-atvori ushbu jamiyatda qabul qilingan me'yoriy qadriyatlarga moslashtiriladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi bolalar, o'smirlar, o'spirinlarning ruhiy rivojlanishi va shaxs sifatida voyaga yetishiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'p sonli shart-sharoitlar zamirida yuzaga keladi.

Ijtimoiylashuv jarayoniga tashqi va ichki omillar ta'sir etadi.

Tashqi omillar:

- megaomillar (mega-ulkan) - koinot, butun yer sharidagi jarayonlar;
- makroomillar (makro-katta) - davlat va jamiyatdagi demografik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ekologik omillar;
- mezoomillar (mezo-o'rta) – muayyan hudud va yashash joyidagi ommaviy aloqa tarmoqlari, muayyan guruhlarining ijtimoiylashish shart-sharoitlari;
- mikroomillar (mikro-kichik) – alohida shaxslarga ta'sir qiluvchi omillar tizimi (oilalar, mahalla maskanlari, tengdoshlar guruhi, ta'lim va tarbiya muassasalari, davlat va nodavlat tashkilotlari).

Ijtimoiylashuv shaxsning butun hayoti davomida kechadigan ko‘p qirrali jarayondir, u ayniqsabolalik va o‘smirlik davrlarida nihoyatda jadallik bilan kechadi, chunki aynan bolalik davrida asosiy ijtimoiy me‘yorlar o‘zlashtiriladi. Bolaning ijtimoiylashuvida, ijtimoiy intizom va tartib, madaniyatning mufassal ko‘rinishi bo‘lgan jamiyatning muhim o‘rni bor. Yirik fransuz psixologi Anri Vallon(1879-1962) bola psixikasining rivojlanishini marksistik nuqtai-nazar orqali tahlil qiladi. Uning asosiy g‘oyalari “Bolaning psixik rivojlanishi”(1941), “Harakatdan to fikrlashgacha”(1942), “Bola tafakkuri manbalari”(1945) kabi tadqiqot ishlarida bayon etilgan.[3] Vallonning ko‘rsatishicha bola psixik taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi, bola yashab turgan muhitning murakkablashib borish jarayoni va unda bolaning o‘zaro birgalikdagi faoliyati hisoblanadi. Bolaning psixik rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi shart-sharoitlardan, insoniyat tomonidan yaratilgan buyumlar va odamlarning xulq-atvori hamda ularning munosabatlari muhim ahamiyatga ega. Anri Vallonning ta‘kidlashicha, bola psixik rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy natija, bolaning shaxs sifatida ulg‘ayishi hisoblanadi. Rivojlanish bir bosqichdan ikkinchi bosqichga sifat o‘zgarishlari bilan o‘tadi, o‘tish jarayonlari inqirozli holatlar bilan kechadi. Vallon o‘z ilmiy ishlarida ruhiy taraqqiyotga ta‘sir etuvchi biologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro munosabati masalasiga ham alohida to‘xtalib o‘tadi hamda bolaning psixik rivojlanishi insoniyat taraqqiyotining qayta takrorlanishi deb hisoblaydigan nazariyalarni tanqid ostiga oladi.

Ushbu yo‘nalishning dastlabki tarafdorlari sifatida Emil Dyurkgeym (1858-1917), Gabriel Tard(1843-1904), Sharl Blondel(1876-1939)ni ko‘rsatish mumkin. Emil Dyurkgeymning fikriga ko‘ra, rivojlanish orqali bola insoniyat to‘plagan tajribalar, urfodatlar va an‘analarni o‘zlashtirib boradi. Bu jarayon taqlid qilish orqali kechadi. Jamiyatdagi taqlid qilish harakatlari, xuddi biologiyadagi irsiyat kabi ahamiyatga ega bo‘lib, bola taqlid qilish qobiliyati bilan dunyoga keladi. Sharl Blondel, Dyurkgeymning odamdagi tabiiylik va ijtimoiylik tabiatini birbiriga qarama-qarshi qo‘yishini tanqid qiladi. Jamiyatni Blondel munosabatlar tizimi sifatida e‘tirof etadi, jamiyat bolaning tashqi olam bilan o‘zaro aloqaga kirishiga ko‘maklashadi. Tarbiya, uning ta‘kidlashicha ijtimoiy xulq qoidalarining mustahkam bo‘lishini ta‘minlab beradi. Ijtimoiy muhit ta‘siri ostida nafaqat bilish jarayonlari, balki hissiy-irodaviy soha ham shakllanadi.

Nemis psixologi Vilyam Shtern(1874-1938) biologik va sotsiologik yo‘nalishlardagi bir yoqlamalikni bartaraf etishga urinib ko‘radi. Vilyam Shtern bola psixikasining rivojlanishiga oid o‘z qarashlarini “Ilk bolalik psixologiyasi” asarida ko‘rsatib o‘tadi. “Ruhiy taraqqiyot, - deb yozadi u, - tug‘ma xislatlarning sodda tarzda aks etishi emas, shu bilan birga tashqi qo‘zg‘atuvchilarni oddiy idrok etish ham emas, balki rivojlanishning tashqi shart-sharoitlari va ichki imkoniyatlari “konvergentsiyasi” natijasi xisoblanadi”. Vilyam Shtern o‘z qarashlarini umumlashtirib quyidagi fikrni

bildiradi: “Konvergensiya nazariyasi...bizning kelgusidagi qarashlarimiz uchun kalavaning uchi sifatida xizmat qiladi...”. Ijtimoiylashuv maskanlari:

Balog‘atga yetib, ulg‘ayib kelayotgan shaxsning o‘zi yashab turgan dunyoni bilishi, o‘zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni anglab yetishi, tushunishi va shaxslararo munosabatlar tizimida o‘zidagi takrorlanmas alohidalikni namoyon etishining ijtimoiy-psixologik manbalarini o‘rganish, ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog‘liq ayrim jihatlarini tahlil qilish, bizga shaxs-jamiyatning ajralmas bir qismidir, degan nazariy xulosani chiqarishga imkon beradi. Individ, ya’ni tabiiy zot sifatida dunyoga kelgan odam bolasi tug‘ilgan kundan boshlab o‘ziga o‘xshash insonlar qurshovida bo‘ladi va uning butun ruhiy olami, qiziqishlari, intilishlari va qobiliyatlari ana shu ijtimoiy muhitda namoyon bo‘ladi, chunki insonning ontogenetik taraqqiyot davriga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, odam bolasi parvarishga muhtoj holda, o‘ziga o‘xshash kishilar davrasiga tushadi, sekin-asta jismoniy, ruhiy va ijtimoiy taraqqiot tufayli ijtimoiy munosabatlarning faol ob`yekti va sub`yektiga aylanadi. Ijtimoiylashuv tushunchasi ijtimoiy-psixologik kategoriya bo‘lib, bu shaxsning uni o‘rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta’sirlariga berilishi, uning norma va qoidalarini o‘zlashtirishga moyilligi, o‘zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir. Insonning tug‘ilib, o‘zini bevosita o‘rab turgan tashqi muhit ta’sirida ulg‘ayishi, shu jamiyat, shu atrof-muhit qurshovida tarbiyalanishiga bog‘liq yotadi.

Oilaning ijtimoiy muhiti har bir shaxs uchun ana shunday birlamchi, dastlabki ijtimoiylashuv o‘chog‘i va ulg‘ayish maskani hisoblanadi. Oiladagi qulay ijtimoiy-psixologik muhit ulg‘ayib kelayotgan shaxsning oilada o‘z ijtimoiy maqomiga ega bo‘lishiga, har bir oila a’zosining jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga, uning boshqalar orasida qadr-qimmatini oshishiga, o‘zining orzu va istaklarini ro‘yobga chiqarishiga zamin yaratib beradi. Agar shaxslararo munosabatlarda uyg‘unlik yetishmasa o‘z-o‘zidan muammolar va nizolar kelib chiqadi, oilaning totuvligi yo‘qoladi hamda noxush psixologik iqlim hosil bo‘ladi, achinarlisi, bu holat farzandlar ruhiyatiga jiddiy ravishda salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев. Ш.М. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 31-бет. –Тошкент. Ўзбекистон, 2018. 64 бет.
2. Каримова В.М. Ижтимоий психология. – Т. Фан ва технология нашриёти. 2012.
3. Курс общей, возрастной и педагогической психологии. Выпуск 3. Под ред. М.В.Гамезо. – М. «Просвещение». 1982.
4. Эльконин.Д.Б. Избранные психологические труды. – М. Педагогика. 1989. 5. Андреева Г.М. Социальная психология. – М., 1997.